

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT

ODTI OLMALIQ DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

60730300 – Qurilish muhandisligi
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60730300 – Qurilish muhandisligi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

OLMALIQ DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260073
Xulosa raqami	751-son
Xulosa sanasi	2026-yil 26-may
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"Olmaliq davlat texnika instituti" davlat muassasasi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent viloyati, Olmaliq shahar, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 55-uy; guvohnoma № 435, 16.08.2017-yil
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Qurilish muhandisligi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60730300
Akkreditatsiya usuli	joyiga chiqib
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	Adilov Zarifjon Himmatovich – Toshkent arxitektura qurilish universiteti; ekspert komissiyasi raisi

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 435 / 16.08.2017
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60730300 – Qurilish muhandisligi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60730300 – Civil Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60730300 – Строительная инженерия
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Muhandis-quruvchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent viloyati, Olmaliq shahar, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 55-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi (muvofiq). Taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, "60730300 - Qurilish muhandisligi" yo'nalishini o'qitishga yo'naltirilgan moddiy-texnik baza, inson resurslari va ilmiy salohiyat kompleks ravishda o'rganilgan hamda mavjud resurslarning ushbu yo'nalish bo'yicha malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash talablariga muvofiqligi aniqlangan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi (muvofiq). Amaldagi ta'lim dasturlarida umumiy kreditlar, soatlar, o'qish muddati, nazariy va amaliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot faoliyati, o'quv yuklamalari taqsimoti va fanlar tarkibining uyg'unligi bo'yicha monitoring yuritilib borilayotgani esa yangi ta'lim dasturini tashkil etishda institutsional tajriba va nazorat mexanizmlari mavjudligini tasdiqlaydi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi (muvofiq). 60730300 - Qurilish muhandisligi yo'nalishi talabalari uchun akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid tartib-qoidalar hamda ichki me'yoriy yo'riqnomalarning mavjudligi ijobiy baholanadi. Ishlab chiqilgan va tasdiqlangan ushbu me'yoriy hujjatlarning 60730300 - Qurilish muhandisligi yo'nalishiga ham tatbiq etilishi ta'lim jarayonida akademik madaniyat, mas'uliyat va intizom tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi (muvofiq). Ta'lim dasturi doirasida talabalarni qo'llab-quvvatlash, jumladan akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalishlarda maslahat berish tizimining yo'lga qo'yilgani ijobiy baholanadi. Talabalarning nafaqat o'quv faoliyatini, balki ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlashga qaratilganini ko'rsatadi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi (muvofiq). 60730300-Qurilish muhandisligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tarkibi universitetning tashkiliy tuzilmasi va ta'lim jarayoni ehtiyojlariga mos shakllantirilgan. Boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi,

o'quv-yordamchi hamda professor-o'qituvchilar tarkibining mavjudligi o'quv jarayonini barqaror tashkil etishga xizmat qiladi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi (muvofig). 60730300 — Qurilish muhandisligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik, o'quv-uslubiy va raqamli ta'lim muhiti shakllantirilgan. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur jihozlar, asbob-uskunalar, texnik vositalar, inventarlar hamda xomashyo materiallarining mavjudligi ta'lim dasturi maqsadlariga mos keladi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ekspert komissiyasi xulosasida akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmagan.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ Ayrim jarayonlar (sifatni ichki ta'minlash, monitoring va hujjatlashtirish) bo'yicha mexanizmlarni yanada aniq rasmiylashtirish zarur.
- ✓ O'quv-metodik va axborot resurslarini bosqichma-bosqich boyitib borish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Sifatni ichki ta'minlash va monitoring jarayonlarini tasdiqlovchi hujjatlar bilan to'liq rasmiylashtirish tavsiya etiladi.
- ✓ O'quv adabiyotlari va elektron ta'lim resurslarini zamonaviy manbalar bilan muntazam yangilab borish tavsiya etiladi.
- ✓ Xalqaro hamkorlik va amaliyot imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Yakuniy xulosa "Olmaliq davlat texnika instituti" davlat muassasasining 60730300 – Qurilish muhandisligi bakalavr ta'lim dasturi bo'yicha joyiga chiqib o'tkazilgan tekshiruv va taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida shakllantirildi. Baholash oltita yo'nalish (bob) va ularga tegishli mezonlar bo'yicha o'tkazildi.


O'tkazilgan tahlil natijasida ta'lim dasturi tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari bo'yicha belgilangan talablarga javob berishi aniqlandi. Barcha oltita yo'nalish muvofiq deb baholandi; barcha mezonlar to'liq muvofiq deb topildi.

Aniqlangan kamchiliklar akkreditatsiyaga to'sqinlik qilmaydi va ular o'quv jarayonini takomillashtirish hamda hujjatlashtirishni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar asosida bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkin.

Yuqoridagi barcha dalillarga tayangan holda, 60730300 – Qurilish muhandisligi bakalavr ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi talablariga **muvofiq deb baholandi**.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	2026-yil 5-iyun
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror (<i>akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi</i>)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

